Energetika xavfsizligi oyligi doirasida belgilangan vazifalar ijrosi tahlil qilindi

// 29.11.2024
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/energetika-xavfsizligi-oyligi-doirasida-belgilangan-vazifala

Sanoat korxonalari faoliyatining barqarorligi bevosita energiyani tejash va samaradorligini oshirish usullarining joriy etilganiga bog‘liq.

Mazkur yo‘nalishda “O‘zkimyosanoat” AJ tarmoq korxonalarining 2024-2025-yil kuz-qish mavsumi davomida barqaror ishlashi va Energetika xavfsizligi darajasini oshirish borasidagi ishlarni kuchaytirish, yoqilg‘i-energiya resurslaridan samarali va oqilona foydalanish evaziga energiya samaradorligini oshirish choralari ko‘rilmoqda.

Xususan, “O‘zkimyosanoat” AJ bosh energetigi Farhod Boboyev jamiyatning Navoiy viloyatida joylashgan sanoat korxonalari -“Navoiyazot” AJ va “Qizilqum fosforit kompleksi” MCHJ da Energetika xavfsizligi oyligi doirasida belgilangan vazifalar ijrosi bevosita tahlil qildi.

Ma’lumot o‘rnida ta’kidlash joiz, joriy yilning sentabr-noyabr oylarida “O‘zkimyosanoat” AJ bo‘yicha chora-tadbirlarning bajarilishi hisobiga 133,1 mln m3 tabiiy gaz va 182,3 mln kVt elektr energiyasi iqtisod qilindi.

“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati